
(raqam va so‘z bilan yoziladi)

Uy-joyni ta‘mirlash uchun ipoteka krediti ajratish to‘g‘risida

Sh A R T N O M A № _____

_____ sh.

_____ yil «_____» _____.

Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki nomidan (bundan buyon shartnoma matnida Bank deb yuritiluvchi) _____ ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ bank xizmatlari markazi boshlig‘i/raxbari _____ bir tomondan , keyingi o‘rinlarda “ Qarz oluvchi ” deb yuritiluvchi _____, pasport ma‘lumotlari : seriya _____ № _____, _____ yilda _____ tomonidan berilgan , ikkinchi tomondan va keyingi o‘rinlarda “ Birgalikda Qarz oluvchi” deb yuritiluvchi, _____ uchinchi tomondan , ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga/Birgalikda qarz oluvchilarga O‘zbekiston Respublikasi, _____, _____ tumani, _____ da joylashgan umumiy maydoni _____ kv.m _____ xonadan iborat uy-joyni ta‘mirlash uchun ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda _____ (_____) so‘m miqdorida maqsadli ipoteka krediti mablag‘lari beradi, Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchilar esa kredit berishning umumiy qoidalariga (maqsadli xarakteri, moddiy ta‘minlanganligi, muddatligi, qaytariluvchanligi va to‘lanuvchanligiga) rioya etgan holda ipoteka kreditidan foydalanadi.

2. KREDITNING SHARTLARI

2.1. Kredit summasi – _____ (_____) so‘m.

2.2. Kreditdan foydalanish muddati – _____ (_____) yil muddatga .

«_____» _____ yildan «_____» _____ yilgacha.

2.3. Asosiy kredit hamda kreditga hisoblangan foizlarning qaytarilishi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to‘lov jadvaliga (1- ilovaga) muvofiq amalga oshiriladi.

2.4. Kredit bo‘yicha foiz stavkasi – yillik _____% miqdorida.

2.5. Asosiy kredit va foizlarni to‘lash muddati har oyning 5 sanasiga qadar.

2.6. Kredit maqsadi va obyekti – O‘zbekiston Respublikasi, _____, _____ tumani, _____ da joylashgan umumiy maydoni _____ kv.m _____ xonadan iborat uy-joyni tayyorlangan loyiha smeta hujjatlariga asosan ta‘mirlash uchun.

3. ASOSIY TUSHUNCHALAR

3.1. Agar shartnoma matnidan boshqacha mazmun anglashilmasa, ushbu shartnoma matnida keyinchalik uchraydigan barcha tushunchalar, mazkur bo'limda keltirilgan ma'noda tushuniladi:

uy-joy ta'mirlash — fuqaroning belgilangan tartibda tartibda kelishilgan va tasdiqlangan loyiha asosida (keyingi o'rinlarda — loyiha asosida) fuqaroning o'z kuchi bilan, xususiy pudrat tashkilotini yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan yollanma ishchilarni yollagan holda uy-joy ta'mirlash, uning me'morchilik-rejalashtirish yechimlarini o'zgartirish, uyning ustiga, yoniga qo'shimcha qurish, eskirgan konstruksiyalar va muhandislik inshootlarini, shu jumladan, tashqi tarmoqlarni (magistral tarmoqdan tashqari) qismlarga ajratgan, almashtirgan holda o'zgartirish.

ariza beruvchi — uy-joyini ta'mirlash maqsadida ipoteka krediti olish uchun bankka ariza taqdim etgan fuqaro;

qarz oluvchi — uy-joyini ta'mirlash uchun ipoteka krediti olgan va kredit shartnomasida belgilangan shartlarda qaytarish majburiyatini ega fuqaro;

birgalikda qarz oluvchi — qarz oluvchining ipoteka krediti asosiy summasi va kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning har oydagi to'lovlarida qatnashadigan, shuningdek, ipoteka krediti bo'yicha solidar javob beradigan jismoniy shaxslar;

qarz yuki ko'rsatkichi - qarz oluvchining barcha kreditlari va mikroqarzlari bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari miqdorining qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning tasdiqlangan o'rtacha oylik daromadi miqdoriga bo'lgan nisbati;

birlamchi uy-joy bozori - tuman (shahar) hokimining qurilishi tugallangan uy-joyini foydalanishga qabul qilib olish to'g'risida komissiya dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarori asosida mulk huquqi yuzaga kelgan hamda qabul qilib olinganiga uch yildan ko'p bo'lmagan uy-joy;

ipoteka krediti — uy-joyini ta'mirlash uchun Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag'lar, banking o'z mablag'lari hisobidan hamda qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan bozor tamoyillari asosida ajratiladigan kreditlar;

uy-joyning xisoblangan qiymati - kvartira bir kvadrat metrlarning tegishli xududdagi o'rtacha bozor qiymati hamda ikki va uch xonali kvartiralar maydonining eng kam me'yorlarini inobatga olgan holda aniqlanadigan qiymat;

pudrat tashkiloti - uy-joyini, bank krediti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ta'mirlashni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyekti;

4. QARZ OLUVCHI VA BIRGALIKDA QARZ OLUVCHINING TASDIG'I

4.1. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

- bankka taqdim etilgan/etiladigan kreditni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanadi;

- qarz oluvchi ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega va ushbu majburiyatlar haqiqiy hisoblanadi;

- birgalikda qarz oluvchi ushbu shartnoma majburiyatlari yuzasidan birgalikda javob beradi va ushbu majburiyatlar haqiqiy hisoblanadi;

- qarz oluvchining/birgalikda qarz oluvchining ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishiga olib keladi;

- agar Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi to'lovlarni amalga oshirishga yoki ushbu shartnomada belgilangan talablardan istalganini bajarishga qodir bo'lmasa Bank kreditni muddatidan oldin qaytarishni va hisoblab yozilgan foizlarni, shuningdek boshqa to'lovlarni muddatidan oldin to'lanishini talab qilishga haqlidir. Shu bilan birga, Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kreditni ta'minlash bo'yicha va Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining boshqa mol-mulkiga undirishni qaratishga haqlidir;

- chaqirib olmaslik va muqarrar tartibda kredit bo'yicha har qanday ta'minlashni amalga oshirishga va foydalanishga va/yoki Bank tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirish uchun barcha zarur choralarni ko'rishga Bankni vakil qiladi.

5. TARAFLARNING HUQUQLARI

5.1. Bankning huquqlari:

5.1.1. Quyidagi hollarda ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni qarz oluvchiga qisman yoki to'liq berishdan bosh tortish:

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni 30 bank kunida taqdim etmaslik;
- uni to'lovga layoqatsiz deb topganda;
- shartnoma imzolanganidan keyin kredit qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning haqqoniy emasligi faktlari aniqlanganda.

5.1.2. Qarz oluvchi va qo'shimcha qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, turar joy va ta'minot sifatida taqdim etilgan boshqa mol-mulkning holati masalalari bo'yicha tekshirish o'tkazish.

5.1.3. Kredit ajratilganidan so'ng, Qarz oluvchi kreditdan maqsadli foydalanilganligini, Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining moliyaviy ahvolini hamda kredit ta'minoti holatining monitoringini (tekshiruv) o'tkazish;

5.1.4. Mazkur shartnoma bo'yicha Qazdorning muddati o'tgan qarzдорligi yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini (asosiy kredit, foiz, penya) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan (bank karta, omonat va b.) dan ularning akseptsiz (rozilgisiz) tartibda memorial order orqali ko'chirib (undirib) olish huquqiga ega.

5.1.5. Ushbu shartnomada ko'rsatib o'tilgan majburiyatlarni bajarmaslik holati vujudga kelganda Bank o'z hohishi bilan quyidagi harakatlarni amalga oshirishga haqli:

- qarz oluvchi va qo'shimcha qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati vujudga kelganligi va uni bartaraf etish muddatini belgilagan holda yozma ogohlantirish yuborish;

- ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun qo'shimcha ta'minot talab qilish;

- ushbu shartnomada ko'rsatilgan tartibda qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchidan kreditni yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;

- majburiyatlar bajarilishini ta'minlash uchun tuzilgan shartnomalar va qonunchilikda belgilangan tartibda kredit ta'minotiga undiruvni qaratish;

- Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining va birgalikda qarz oluvchining mobil telefonlariga to'lov jadvaliga muvofiq to'lovlar yaqinlashayotganligi haqida 10 kun oldin SMS xabarlar yuborish;

- Qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmagan hollarda, Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS eslatmalar yuborish.

Shuningdek, Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchi bilan shaxsan muloqat olib borgan holda to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozimligi haqida, hamda aks holda Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi mumkinligi to'g'risida tushuntirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek shu mazmunda SMS xabarlar yuborish;

- Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorliklarini majburiy ravishda undirish maqsadida, sudga da'vo arizasi kiritilganligi to'g'risida Qarz oluvchining mobil telefoniga SMS xabornomalar yuborish;

- Mazkur shartnoma yuzasidan muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan hollarda, asosiy kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirish maqsadida undiruvni garovga qo'yilgan ko'chmas mulk obyektiga qaratishni so'rab sudga da'vo arizasini kiritish;

- ushbu shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa har qanday huquqdan foydalanish.

5.1.6. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Qarz oluvchiga va Birgalikda qarz oluvchiga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish huquqlariga ega.

5.1.7. Ajratilgan kreditning maqsadli ishlatilishi bo'yicha monitoring ishlarini oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan kredit mablag'i hisobiga mahsulot yetkazib berish va/yoki ish (xizmatlar) ko'rsatishning oxirgi muddatlari tugaganidan so'ng, joyiga chiqqan holda amalga oshirish. Shuningdek, kredit mablag'i bo'lib-bo'lib ajratilishi nazarda tutilgan hollarda har bir bosqichda ajratilgan kredit bo'yicha maqsadli ishlatilishi bo'yicha monitoring o'tkazish;

5.1.8. Ajratilgan kredit mablag'lari yoki uning bir qismi Qarz oluvchi tomonidan maqsadsiz ishlatilganligi aniqlangan hollarda, Qarz oluvchiga hamda birgalikda qarz oluvchiga nisbatan tegishli chora ko'rish va qarzdorlikni undirish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va tegishlilik bo'yicha sudga taqdim etish huquqlariga ega.

5.2. Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining huquqlari:

5.2.1. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan summa va maqsadlarda 30 kun ichida ssuda hisobraqamidan to'lovni amalga oshirish.

5.2.2. Kreditni muddatidan oldin hech qanday jarimalarsiz to'lash.

5.2.3. Xalq bankining "Contact centri" orqali bankdan olingan kredit yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olish.

6.TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Bankning majburiyatlari:

6.1.1. Qarz oluvchi tomonidan kredit ajratish yuzasidan zarur bo'lgan barcha hujjatlar Bankka taqdim etilganidan so'ng, Bank kredit summasini pudratchi - qurilish tashkiloti yoki tadbirkorlik subyekting bank hisob raqamiga pul ko'chirish orqali o'tkazib beradi.

6.1.2. Qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchini kredit uchun to'lovning ortgani yoki kamaygani, kredit berishdan bosh tortish, uni muddatidan avval undirish sabablari to'g'risida yozma xabardor qilish.

6.2. Qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchining majburiyatlari:

6.2.1. Ushbu shartnomaning ilovasi hisoblangan to'lov jadvaliga (grafik) muvofiq kredit va kreditga hisoblangan foizlar bo'yicha oylik to'lovlarni o'z vaqtida to'lash.

6.2.2. Ajratilgan kreditdan ushbu shartnomada ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda foydalanish.

6.2.3. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab __ bank kuni ichida bank xodimi bilan birgalikda quyidagi hujjatlar rasmiylashtirish:

- notarial tasdiqlangan ko'chmas mulk garovi (ipoteka) shartnomasi;
- ko'chmas mulkning sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi;
- ko'chmas mulk garovi (ipoteka) shartnomasining davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar.

6.2.4. Bankning so'roviga asosan Bank vakillariga garovdagi mol-mulk va kredit hamda qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa har qanday holatlarni joyiga chiqib ko'rish imkoniyatini yaratish va ushbu jarayonda ishtirok etish.

6.2.5. Turar joyi, familiyasi, ishi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ma'lumot va xolatlarning o'zgarganligi to'g'risida 3 kun ichida Bankka ma'lumot taqdim etish.

6.2.6. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni belgilangan muddatlarda bajarish.

6.2.7. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik tamoyillariga rioya qilish.

6.2.8. Ushbu shartnoma amalda bo'lgan davrda boshqa kreditorlardan qarz va kreditlar olmaslik, boshqa shaxslarga qarz va kredit bermaslik, uchinchi shaxsning majburiyatlari bo'yicha kafil bo'lmaslik.

6.2.9. Xalq bankining "Contact center" operatorlari qo'ng'iroqlariga xushmuomalalik bilan javob berish va muloqatda bo'lish hamda SMS xabarlarini ijobiy qabul qilish;

6.2.10. Telefon raqami o'zgargan hollarda, zudlik bilan Bankni xabardor qilish. Bunda, telefon raqami o'zgargan kundan boshlab ikki ish kunida Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Bankni xabardor qilishi lozim.

6.2.11. Ushbu shartnoma bo'yicha asosiy kredit va foizlardan bo'lgan muddati o'tgan qarzдорligi yuzaga kelgan hollarda Qarz oluvchi Bankning yozma talabnomasini olgan kundan boshlab 5 (besh) bank ishi kuni ichida kreditning ta'minoti sifatida garovga (ipotekaga) qo'yilgan ko'chmas mulk obyektni qarzдорlikni qoplash evaziga Bankka topshirish;

6.2.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zlariga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlashga va ulardan foydalanishga ushbu shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq o'z roziligini berish majburiyatlarini oladilar.

7. KREDIT BERISH VA UNI SO'NDIRISH TARTIBI

7.1. Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 6.2.3-bandida ko'rsatib o'tilgan shartlar to'liq hajmda bajarilib, quyidagi hujjatlar Bankka taqdim etilganidan so'ng, kredit summasi pudratchi - qurilish tashkiloti yoki tadbirkorlik subyektning bank hisobraqamiga pul o'tkazish orqali o'tkazib beriladi:

- amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda notarial idorasi orqali tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ipoteka/garov shartnomasining asl nusxasi;

- sug'urta to'lovlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek garov predmetining sug'arta shartnomasi hamda sug'urta polisining asli.

7.2. Qarz oluvchining krediti bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan hollarda, qarzдорlik quyidagi navbatda qoplanadi:

Birinchi navbatda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

Ikkinchi navbatda joriy davr uchun xisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;

Uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya) va undan keyingi navbatda Qarz oluvchining qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

7.3. Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchi ilovada keltirilgan to'lovlar jadvaliga asosan oylik to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan kreditni qaytaradi va unga hisoblangan foizlarni to'laydi.

7.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzдорliklar yuzaga kelgan hollarda, Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarz oluvchining hisobvarag'i (plastik karta, omonat va b.)dan uning topshirig'isiz akseptsiz tartibda memorial order asosida ko'chirib (undirib) oladi, shuningdek, qarzдорliklar Notariusning ijro xati asosida qoplanishi mumkin. Bank bu haqda Xalq bankining "Contact center" operatorlari orqali Qarzdorning mobil telefoniga SMS xabarnoma yuboradi.

7.5. Ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik yuzaga kelgan hollarda keditning ta'minti sifatida garovga (ipotekaga) qo'yilgan ko'chmas mulk obyekti qarzдорlikni qoplash evaziga Bankning yozma talabnomasi asosida Qarz oluvchi tomonidan Bankka topshiriladi.

8. MAJBURIYATNI BAJARMASLIK HOLATLARI

8.1. Ushbu bandeda keltirilgan quyidagi har qanday holat Majburiyatlarni bajarmaslik holati bo'lib hisoblanadi:

- kredit mablag'larini maqsadsiz ishlatish;
- qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchining kredit, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar bo'yicha to'lovlarni ushbu shartnomada, unga ilova qilingan to'lovlar jadvalida, shuningdek ushbu shartnoma bilan tuzilishi ko'rsatib o'tilgan boshqa shartnomalar (garov, ipoteka, kafolat, sug'urta va shu kabilar) bo'yicha belgilangan sanada amalga oshirmasligi;
- ushbu shartnoma shartlarini buzish;
- haqqoniy bo'lmagan hujjatlarni taqdim etish orqali Bankni ataylab chalg'itish;
- bankning xulosasiga ko'ra Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchi tomonidan Bankka kredit bo'yicha taqdim etilgan ta'minot turining o'z qiymatini to'liq yoki qisman yo'qotishi yoki haqiqiy bo'lmay qolishi;
- qarz oluvchining, Birgalikda qarz oluvchining va/yoki kafilning moliyaviy ahvolining yomonlashishi yoxud kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni muntazam buzilishiga olib keluvchi aniq ma'lumotlarni yashirish;
- qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar;
- ushbu shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar (garov, kafolat, sug'urta va shartlarini buzish).

9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

9.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, ya'ni asosiy kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab, Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,2 baravari miqdorda yuqori foiz to'laydi.

9.2. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganlik va ular bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan hollarda, Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

9.3. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda kredit ajratilmaganda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan kredit summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan kredit summasining 10 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

9.4. Taraflar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolar tomonlarning o'zaro kelishuv yo'li mazkur shartnoma qoidalariga ko'ra sudga murojaat kilmasdan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

10. KREDIT TA'MINOTI

10.1. Qarz oluvchi ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng 30 kun ichida O'zbekiston Respublikasi, ____, __ tumani, __ da joylashgan umumiy maydoni __ kv.m __ xonadan iborat bo'lgan ____-xonadonni (yakka tartibdagi uy joy bo'lgan taqdirda yerdan foydalanish xuquqi bilan birgalikda garovga olinadi) bank tomonidan ajratiladigan kreditning ta'minoti sifatida ipoteka (garov) shartnomasini notarial tartibda rasmiylashtirib Bankka taqdim etadi.

10.2. Bank Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchidan kredit bo'yicha qo'shimcha ta'minot talab qilishga haqli.

10.3. Bir necha ta'minot turining mavjudligi bir-biriga zid hisoblanmaydi, majburiyatlar bajarilishi ta'minotining har biri mustaqil bo'lib, bir-biriga bog'liq hisoblanmaydi.

10.4. Ta'minot turlariga undiruvni qaratish zarurati vujudga kelganda, Bank o'z hohishi va tanloviga ko'ra ta'minot turlaridan biri yoki barchasiga sudga murojaat qilmasdan baravar undiruvni qaratish huquqiga ega.

10.5. Kredit ta'minoti bilan bog'liq hujjatlarni lozim darajada rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

10.6. Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchi kredit ta'minotini kredit summasining 135 (bir yuz o'ttiz besh) foizi miqdorida ushlab turish majburiyatini oladi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu shartnoma imzolangan vaqtdan kuchga kiradi. Bankning kredit berish majburiyati Qarz oluvchi tomonidan 30 (o'ttiz) bank kuni ichida ushbu shartnomada ko'rsatilgan hujjatlar Bankka taqdim qilingandan so'ng kuchga kiradi. Hujjatlar 30 (o'ttiz) bank kuni ichida taqdim etilmaganda, Bank kreditni berishdan bir tomonlama bosh tortishga haqli.

11.2. Ushbu shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab taraflarning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar yoki ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuvlarda ko'rsatib o'tilgan shartlarda bekor qilingunga qadar amalda bo'ladi.

11.3. Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan va muhr bilan tasdiqlangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

11.4. Agarda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi o'zgarishlar natijasida ushbu shartnomaning biror-bir sharti amaldagi qonunchilikka mos kelmay qolsa, bu holat shartnomaning boshqa shartlarining bajarilishiga ta'sir qilmaydi va qisqa muddat ichida ma'no va maqsad jihatidan yaqin bo'lgan boshqa shart bilan almashtiriladi.

12. FORS-MAJOR HOLATLAR

12.1. Taraflarning erki va istagiga bog'liq bo'lmagan hamda oldindan ko'ra bilish yoki oldini olib bo'lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo'lmas kuch tufayli taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgarlikdan ozod etiladilar.

Quyidagilar favqulodda vaziyatlar (fors-major) bo'lib hisoblanadi: suv toshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, yer ko'chkisi, epidemiya, pandemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolik tartibsizliklari, terrorchilik harakatlari.

12.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganda majburiyatlar bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari davom etgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

12.3. Taraflar fors-major holatlari vujudga kelganligi va tugaganligi haqida zudlik bilan yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

12.4 Fors-major holatiga asoslanayotgan taraf, vakolatli davlat idorasining bunday holatlarni vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

13. Korrupsiyaga qarshi shartlar

13.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

13.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

13.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi Mazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. www.xb.uz

vebsaytiga o'ting va elektron hujjat to'g'risida ma'lumotlarni oling. tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

13.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

13.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

14. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchi ipoteka krediti hisobiga sotib olingan uy-joyni Bankning yozma rozilgisiz qayta qurish va o'zgartirish huquqiga ega emas.

14.2. Ipoteka krediti hisobiga sotib olingan uy-joyni Bankning yozma rozilgisiz qayta qurganlik va o'zgartirganlik uchun Qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi va uy-joyni o'z hisobidan avvalgi holatiga keltirish majburiyatini oladi.

14.3. Kredit shartnomasi amalda bo'lgan davrda Bankning yozma rozilgisiz davlat kadastr organi, kommunal ekspluatatsiya xizmati, notarial idora va ichki ishlar organlari orqali uy-joyni sotish, voz kechish, ijaraga berish, ipoteka narsasiga uchinchi shaxslar va yaqin qarindoshlarni ro'yxatga qo'yishga ruxsat berilmaydi.

14.4. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va bir tomondan Bank hamda boshqa tomondan Qarz oluvchi va Birgalikda Qarz oluvchi tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

14.5. Bank o'z hohishiga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan ushbu shartnomada belgilangan har qanday huquqdan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Bank tomonidan mazkur huquqlardan foydalanmaslik yoki qisman foydalanish, mazkur huquqlardan voz kechilganligini anglatmaydi va Bank keyinchalik ulardan har qanday vaqtda foydalanishi mumkin.

14.6. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzilgan bo'lib, tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

TOMONLARNING REKVIZITLARI:

QARZ OLUVCHI:

BANK:

Manzil:_____ viloyati (shahar), _____

STIR

h/r _____

MFO _____

**“Contact centye r” aloqa tel.raqami :
(71) 210-20-02**

Qarz oluvchi

Pasport seriyasi _____

_____y.

_____ tomonidan berilgan.

Manzil :_____ viloyati _____

Tel.raqami: {phone}

M.O‘.

(qarz oluvchi ismi, sharifi qisqartirilmagan holda, o‘z qo‘li bilan)

Ushbu shartnomani o‘qidim, shartnomadagi bo‘lim va bandlar hamda undagi so‘zlarning mazmuni, mohiyati aniq va tushunarli bo‘lganligi uchun mazkur shartnomani imzolayman va uni so‘zsiz bajaraman.

(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi(lar):

--

“Hurmatli qarz oluvchi! Kredit va unga hisoblangan foizlar o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar shakllanadi va bu esa o‘z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin”.